

PEDAGOGIK TA'LIMDA JINOYAT HUQUQI O'QITILISHINING AYRIM JIHLTLARI

Xamraqulov Zafarjon Yigitalievich

Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti v. b., PhD.

Gmail: zafarjonxamraqulov@gmail.com

Annotatsiya: *ushbu maqolada pedagogik ta'limda jinoyat huquqi o'qitilishining ayrim jihatlari xususida fikr yuritiladi. Bunda ushbu fanning boshqalardan ajralib turadigan tomonlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *jinoyat huquqi, ta'lim, jinoyat, jinoyat qonunchiligi, Jinoyat kodeksi, maxsus qism, huquq.*

Talabalar tomonidan jinoyat huquqining predmeti va ob'ekting chuqur o'rganilishiga Jinoyat kodeksining Maxsus qismidagi alohida jinoyatlarni bir-biridan farqini ajratish katta yordam beradi. Jinoyat huquqining predmeti – jinoyat sodir etilishi munosabati bilan vujudga keladigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi. Jinoyat huquqining ob'ekti – jinoyat qonuni bilan qo'riqlanadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi [1]. Bu ikki tushuncha jinoyat huquqi faniga oid masalalar jinoyat qonuni bilan tartibga solinishini, mazkur huquq sohasi uchun faqat Jinoyat kodeksigina manba bo'la olishini ko'rsatadi. Masalan, 97-moddadagi “Qasddan odam o'ldirish” va 99-moddadagi “Onaning o'z chaqalog'ini qasddan o'ldirishi” jinoyatlarini aniq ajrata olish uchun jinoyat ob'ekti va jinoyatning predmeti tushunchalarini yaxshi bilish lozim. Zero, 97-moddada ko'zda tutilgan jinoyatni sodir etganlik uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanilsa, 99-modda uchun eng ko'pi bilan uch yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llaniladi. Jinoyatni to'g'ri kvalifikatsiya qilish qo'llaniladigan jazoni to'g'ri belgilash uchun asos vazifasini o'taydi. Shuningdek, jinoyat huquqi fanida umumiy ob'ekt, maxsus ob'ekt, bevosita ob'ekt, ikki ob'ekli jinoyatlar kabi tushunchalar mavjud bo'lib, ular jinoyatlarni bir-biridan farqlash uchun zarurdir. Boshqa fanlarda mazkur masala jinoyat huquqi darajasida keng va atroflicha tahlil qilinmaydi.

Jinoyat huquqining juda muhim jihatlardan – biri uning umumiy qonuniyatlariga huquq analogiyasining qo'llanilmasligi bilan bog'liqdir. Agar fuqarolik huquqi uchun odat normalaridan foydalanish mumkin bo'lsada, jinoyat huquqida buning imkoni mavjud emas. Mazkur fan doirasida faqat Jinoyat kodeksigina manba vazifasini bajaradi. Jinoyat kodeksidan boshqa hech qaysi qonun jinoiy huquqbuzarlik uchun qo'llaniladigan jazolarga asos bo'lmaydi. Ijtimoiy munosabatlar xilma-xill bo'lishi va ularni tartibga solishda huquqiy me'yorlarni har doim qo'llab bo'lmasligining umumiy manzarasi oila, fuqarolik, mehnat huquqi doirasida namoyon bo'ladi. Mazkur fanlardagi mavjud huquqiy holatlar jinoyat qonunchiligiga to'la mos kelmaydi. Jinoyat huquqi fani tizimida faqat me'yoriy hujjatlargina huquqiy asosga ega bo'ladi. Jumladan, jinoyat qonuniga kiritilmagan axloq qoidalari bo'yicha jinoiy jazo sanksiyalarini

qo'llash mumkin emas. Tasavvur qilaylik, jamiyat uchun umuman ilgari sodir etilmagan g'ayriijtimoiy xatti-harakat yuz bersa va axloqiy munosabatlarga muvofiq kelmasa, jamiyat tomonidan rad etilsa, ammo jinoyat qonunchiligidan ushbu holat o'rin olmagan bo'lsa nima bo'ladi? Agar ushbu g'ayriijtimoiy xatti-harakatni sodir etgan shaxsni javobgarlikka tortmoqchi bo'linsa, unda "Meni qaysi norma bilan jazolamoqchisiz?", degan savol paydo bo'lishi mumkin. Jinoyat kodeksida ushbu holat o'z aksini topmagan bo'lsa, shaxsni javobgarlikka tortish mumkin bo'lmaydi.

Jinoyat kodeksi doirasida qo'llaniladigan yuridik atamalar talabalarni huquqiy bilimlarining kengayishiga yordam beradi. Qo'llaniladigan yuridik atamalar yuridik texnika uchun zarur bo'lib, ular me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tushunarli va samarali bo'lishini ta'minlash maqsadida qo'llaniladi. Yuridik tilning ishlatilishida sinonim, omonim so'zlar qo'llanilishi mumkin emas. SHuningdek, turli yangi atamalarni asossiz ravishda muomalaga kiritish va ishlatish ham to'g'ri bo'lmaydi. CHunki bu holat jinoyat qonunchiligi uchun qo'shimcha muammolarni vujudga keltiradi. Jumladan, affekt holat, g'arazg'o'ylik, davlat siri, xizmat siri, harbiy sir, ancha miqdor, ko'p miqdor, juda ko'p miqdor, genotsid, ko'pchilik uchun xavfli usul, oldindan til biriktirish, retsivist, jinoyatlar majmui, latent jinoyatchilik, prekursorlar, sudlanganlik, dalolatchi va boshqa atamalar huquqshunoslikning boshqa sohalarida muhim o'rin egallamaydi. Mazkur atamalarni o'rganishning ahamiyati shundaki, ularni bilish jinoyatlarni to'g'ri kvalifikatsiyalash hamda qo'llaniladigan jazo choralarini kamaytirish imkoniyatlarini aniqlash uchun kerak. SHuning uchun jinoyat huquqi bilan tanishayotgan talaba yuridik atamalar bilan ishlaydi.

Qonunchilikka xos yuridik atamalar bilan ishlash talabaning huquqiy savodxonligini oshirish bilan birga, uning keyingi faoliyatida ham asqotadi. Zotan, bo'lajak pedagog kelgusida o'z yaqinlari, tanish-bilishlari, do'stlari va boshqa fuqarolar bilan muloqotlarda jinoyat qonunchiligiga doir muammolarga yoki ularning qiziqtirgan savollariga duch keladi. Bunday holatda boshqalar jinoyat qonunchiligini o'rgangan sobiq talabadan aniq javob kutadi. Talabalik davomida o'rganilgan bilim, egallangan ko'nikma va o'zlashtirilgan malaka jamiyat a'zolarining huquqiy bilimlarini yuksaltirish uchun qo'shimcha imkoniyat beradi.

Jinoyat kodeksining 13-moddasi jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi bilan bog'liq huquqiy me'yorni tartibga soladi. Amaldagi tartibga ko'ra, jinoiy qilmishning jinoyat deb topilishi va jazoning qo'llanilishi ushbu qilmish sodir etilgan vaqtda amal qilayotgan qonun bilan belgilanadi. Mazkur moddaning ikkinchi qismida qilmishning jinoiyligini bekor qiluvchi, jazoni yengillashtiruvchi yoinki shaxsning ahvolini boshqacha tarzda yaxshilashi mumkin bo'lgan qonunning orqaga qaytish kuchiga ega ekanligi o'rin olgan. Bunday qoida boshqa huquqiy munosabatlar uchun muhim ahamiyatga ega emas. Faqat jinoyat qonunchiligida mazkur masala katta o'rin tutadi. Buni tushunish uchun tasavvur qilaylik, 2020 yilning 15 yanvar kuni biror jinoyat sodir etilgan va bu paytda jinoyat qonunida ushbu qilmish uchun belgilangan jazo – besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan belgilangan bo'lsa, aytaylik

2020 yilning fevral yoki mart oyida qabul qilingan qonun o'zgarishiga ko'ra jazo sakkiz yildan o'n uch yilgacha qilib belgilanishi mumkin. Bunday holda ushbu jinoyatni sodir etgan shaxsning sudda ishi ko'rilayotgan vaqtda unga og'ir jazo qo'llovchi keyingi qonunni emas, balki oldingi 2020 yil 15 yanvardagi jazoni qo'llash kerak. Mana shu narsa jinoyat qonunining orqaga qaytish kuchi deb nomlanadi. Mazkur huquqiy me'yorni bilish talabning jinoyat huquqiga qiziqishini ortishiga imkon beradi.

Jinoyat qonunchiligining normalari yuridik texnika asosida shakllantirilgan bo'lib, uni oddiy fuqaro ko'plab moddalarida nazarda tutilgan me'yorlarni tushunmaydi. Buning ustiga jinoyatlar bir-biriga o'xshash jihatlarga ham ega bo'lib, ularni tahlil qilish uchun anchagina huquqiy bilimlar zarur bo'ladi. Jumladan, Jinoyat kodeksining 243-moddasi "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish" deb nomlanadi va uning dispozitsiyasini o'qib oxiriga yetganda moddaning boshlanishi esdan chiqib bo'ladi. Boshqa moddalarda ham shunga o'xshash holat bo'lib, ularda o'rnatilgan huquqiy nazariyani anglash uchun rasmiy tilda yozilgan huquqiy normalarni tahlil qilish malakasiga ega bo'lish lozim. Bu talabning mustaqil ta'lim mashg'ulotlari asosida yo'lga qo'yilishi maqsadga muvofiq sanaladi. Zero rasmiy tilda yozilgan huquqiy normalarni tahlil qilishni shusiz ham oz vaqt ajratilgan ma'ruza va seminar mashg'ulotlarida to'liq o'rganib bo'lmaydi. Rasmiy tilda yozilgan huquqiy normalarni tahlil qilish talabning pedagogik kompetentsiyalarini rivojlantirish uchun katta yordam beradi.

Ta'lim oluvchilarni jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi yetuk shaxs sifatida tayyorlash didaktik jarayonda ma'naviy-axloqiy jihatlarga katta e'tibor berishni taqozo etadi. Ta'lim faqat fanga doir bilimlarni o'rgatish bilan cheklanib qolmasdan, tarbiya funksiyasini ham bajaradi. Ta'limni tarbiyadan ajratish mumkin emasligi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Ta'lim va tarbiya dialektikasi bo'lajak huquqshunoslik fani o'qituvchilarini tayyorlash uchun zaruriy element sanaladi. Huquqiy fanlarning o'qitilishi jamiyatdagi tinchlik va osoyishtalikni ta'minlovchi ijtimoiy muhitning shakllanishiga xizmat qilishi zarur. Bunda ta'lim tashkilotlarida huquqiy bilim bilan birga huquqiy tarbiya berishga ham katta e'tibor berilishi zarur.

ADABIYOTLAR:

1. Usmonaliev M. Jinoyat huquqi (Umumiy qism). Darslik. – T.: Yangi asr avlodi, – 2010. – B. 17-84.
2. Yigitalievich K. Z. Fundamentals of the development of professional competence of students of law pedagogics //Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development. – 2022. – T. 10. – S. 154-160.
3. Yigitalievich, Khamrakulov Zafarjon. "Development of students' competence in the use of legal documents" Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 10.12 (2022): 729-733.

4. Khamrakulov Z. Y. Philosophical and historical basis of the idea of prosperity //Asian Journal Of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 6. – S. 357-363.
5. Yigitalievich K. Z. Increasing Legal Culture Of Students By Improving The Teaching Of Criminal Law //Czech Journal of Multidisciplinary Innovations. – 2022. – T. 12. – S. 38-42.
6. Khamrakulov Z. Problems of increasing legal information and legal literacy of youth //Models and methods in modern science. – 2022. – T. 1. – №. 16. – S. 4-7.